# XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2022 - yil 21 - aprel VI-49-94-8-0-K/22 Surxondaryo viloyati hokimligi

**Surxondaryo viloyati mahalliy budjetining 2022-yil I chorak ijrosi to‘g‘risida**

Surxondaryo viloyati Moliya bosh boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan viloyat mahalliy budjetining 2022-yil I chorak ijrosi to‘g‘risidagi hisobot hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-moddasiga muvofiq ko‘rib chiliqib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflarini inobatga olgan holda xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i J.Normo‘minovning Surxondaryo viloyati mahalliy budjetining 2022-yil I chorak ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti hamda daromad va xarajatlari ijrosi 1-2-3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. 2022-yil I chorak ijrosi bo‘yicha viloyat mahalliy budjetining daromadlari prognoz rejasi 93.3 mlrd.so‘mga oshirib bajarilishiga erishilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 29-iyundagi 445-son qarorida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 4,3 mlrd.so‘m qo‘shimcha soliq bazasi aniqlanib, tegishli tartibda undirish uchun tuman (shahar) Davlat soliq inspeksiyalariga taqdim etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasi (J.Normo‘minov), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (E.Narmanov) viloyat mahalliy budjetining 2021-yil II, III choraklarda oshirib bajarilgan tushumlar ko‘rsatkichlarini saqlab qolgan holda joriy yil davomida ham tasdiqlangan ko‘rsatkichlarning ortig‘i bilan bajarilishini ta’minlash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar ko‘rsin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari va partiya guruhlari o‘z nazorat-tahlil faoliyatida, xususan, viloyat mahalliy budjetining ijrosi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish chog‘ida budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar va tavsiyalar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Sessiya raisi** **Choriyev.A.R**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining
2022 yil 21 apreldagi
VI-49-94-8-0-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Surxondaryo viloyati mahalliy budjeti daromadlarining 2022-yil 1-aprel holatiga ijrosi to‘g‘risida**

**MA’LUMOT**

mln. so‘mda

| **Daromadlar nomi** | **Reja** | **Bajarilishi** | **Farqi** | |
|---|---|---|---|---|
| | | | **(+, -)** | **%** |
| Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 15 955 | 24 527 | 8 571,7 | 153,7% |
| Aylanmadan soliq | 24 011 | 24 804 | 793,2 | 103,3% |
| Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 202 687 | 212 517 | 9 830,0 | 104,8% |
| Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i | 4 058 | 4 607 | 549,4 | 113,5% |
| Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0% |
| Aksiz solig‘i, jami | 37 852 | 39 066 | 1 214,0 | 103,2% |
| shu jumladan: | 0,0 | 0,0 | 0,0 | |
| oxirigi iste’molchiga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi | 37 852 | 39 066 | 1 214,0 | 103,2% |
| Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 17 979 | 19 631 | 1 651,6 | 109,2% |
| Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 9 899 | 10 741 | 841,8 | 108,5% |
| Yuridik shaxslar yer solig‘i | 19 960 | 25 451 | 5 490,5 | 127,5% |
| Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 28 337 | 29 201 | 864,3 | 103,1% |
| Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 0 | 0 | 0,0 | 0,0% |
| Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 9 324 | 12 443 | 3 119,2 | 133,5% |
| Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 3 509 | 4 496 | 987,1 | 128,1% |
| Davlat boji | 26 739 | 31 375 | 4 636,4 | 117,3% |
| Jarimalar | 12 674 | 18 437 | 5 763,2 | 145,5% |
| Yig‘imlar | 17 227 | 17 414 | 187,0 | 101,1% |
| Boshqa tushumlar | 5 450 | 19 323 | 13 872,8 | 354,5% |
| **Daromadlar jami** | **435 661** | **494 033** | **58 372,1** | **113,4%** |
| Moliya yili boshiga mahalliy budjetlarning asosiy gaznachilik hisobvaraqlaridagi qoldiqlar hisobidan mablag‘lar yo‘naltirish | 45 000,0 | 38 809,0 | -6 191,0 | 0,9 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan mahalliy budjetlarga o’tkaziladigan mahsulotlar | 96 308,0 | 81 359,9 | -14 948,1 | 84,5% |
| Respublika budjetidan olingan tartibga soluvchi transfertlar | 663 112,0 | 525 466,0 | -137 646,0 | 0,8 |
| O‘zaro hisob-kitob bo‘yicha respublika budjetidan olingan mablag‘lar | 98 651,1 | 14 815,7 | -83 835,5 | 0,8 |
| **DAROMADLAR JAMI** | **1 338 732,1** | **1 154 483,6** | **-184 248,5** | **86,2%** |

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining
2022 yil 21 apreldagi
VI-49-94-8-0-K/22-son qaroriga
2-ilova

**Surxondaryo viloyati mahalliy budjeti 2021-yil 1-aprel holatiga xarajatlarning ijrosi yuzasidan**

**MA'LUMOT**

ming so'mda

| № | Xarajatlar nomi | Aniqlangan reja | Bajarilishi | Farqi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | (+, -) | %% |
| | **I. Xarajatlar - jami** | **1 338 732** | **1 154 484** | **-184 249** | **86,2%** |
| **1.** | **Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - jami** | **800 089** | **746 378** | **-53 711** | **93,3%** |
| | *shu jumladan:* | | | 0 | 0,0% |
| 1.1 | Maorif | 169 886 | 150 666 | -19 219 | 88,7% |
| | -maktabgacha ta'lim | 79 435 | 74 003 | -5 432 | 93,2% |
| | -umumiy ta'lim | 89 869 | 76 202 | -13 667 | 84,8% |
| | -kadrlar tayyorlash | 582 | 462 | -120 | 79,3% |
| 1.2 | Sog'liqni saqlash | 349 799 | 322 797 | -27 002 | 92,3% |
| 1.3 | -madaniyat ommaviy axborot vositalari | 17 086 | 15 688 | -1 397 | 91,8% |
| 1.4 | -sport | 15 726 | 14 655 | -1 071 | 93,2% |
| 1.5 | Fan | 940 | 900 | -39 | 95,8% |
| 1.6 | Bolali oilalarga va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar | 246 653 | 241 671 | -4 982 | 98,0% |
| **2.** | **Iqtisodiyotga xarajatlar** | **188 775** | **166 156** | **-22 619** | **88,0%** |
| 2.1 | Obodonlashtirish | 35 819 | 33 033 | -2 786 | 92,2% |
| 2.2 | Drenaj ishlari bilan bog'liq xarajatlar | 137 | 117 | -20 | 85,5% |
| 2.3 | Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining hududiy bo'limlarini saqlash xarajatlari | 795 | 748 | -48 | 94,0% |
| 2.5 | Termiz suv yo'llari tashkiloti | 13 639 | 1 508 | -12 131 | 11,1% |
| 2.6 | Suv xo'jaligi vazirigi tashkilotlari | 120 003 | 115 469 | -4 535 | 96,2% |
| 2.7 | Qishloq xo'jaligi vazirligi tashkilotlari | 3 950 | 3 734 | -216 | 94,5% |
| 2.7.1 | Issiqlik ta'minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari | 1 050 | | -1 050 | 0,0% |
| | O'rmon xo'jaligi tashkilotlari | 2 482 | 2 275 | -206 | 91,7% |
| 2.9 | Davlat ekologiya qo'mitasining hududiy boshqarmalari | 1 715 | 1 577 | -138 | 91,9% |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 2.10 | Chigirtka va qizil kapalakka qarshi profilaktika va kurashish radiologik va toksikologik kuzatuvlarni olib borish, tuproq hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlaridagi og‘ir metall tuzlari va pestitsidlar cho‘kindi qoldiqlari, to‘plangan radionuklidlarni tahlil qilish bo‘yicha chora-tadbirlar | 3 338 | 2 361 | -977 | 70,7% |
| 2.11 | Veterinariya qo‘mitasi | 5 847 | 5 334 | -513 | 91,2% |
| **3.** | **Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar** | **112 707** | **14 393** | **-98 314** | **12,8%** |
| **4.** | **Davlat boshqaruv organlarini saqlash** | **78 199** | **71 969** | **-6 230** | **92,0%** |
| **5.** | **Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash** | **22 048** | **19 887** | **-2 161** | **90,2%** |
| **6.** | **Ijtimoiy ko‘nikma markazlari** | **610** | **466** | **-144** | **76,4%** |
| **7.** | **Qabullar uyini saqlash xarajatlari** | **923** | **775** | **-147** | **84,1%** |
| **8.** | **Boshqa xarajatlar** | **99 864** | **113 217** | **13 353** | **113,4%** |
| 8.2 | Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo‘yilishi bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo’yicha xarajatlari | 2 890 | 2 854 | -36 | 98,7% |
| 8.4 | Advokatlar xizmati | 1 000 | 124 | -876 | 12,4% |
| 8.6 | Mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar | 4 489 | 17 677 | 13 189 | 393,8% |
| **9.** | **Zahira jamg‘armasi** | 35 518 | 21 242 | **-14 276** | **59,8%** |
| | **XARAJATLARNING HAMMASI** | **1 338 732** | **1 154 484** | **-184 249** | **86,2%** |

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining
2022 yil 21 apreldagi
VI-49-94-8-0-K/22-son qaroriga
3-ilova

**Surxondaryo viloyati mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak daromadlar va xarajatlar ijrosi to‘g‘risida**

**MA‘LUMOT**

**mln. so‘mda**

| T/r | Hududlar nomi | Daromad | | | | Xarajat | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Reja | Tushum | Farqi (so‘mda) | Farqi (foizda) | Reja | Tushum | Farqi (so‘mda) | Farqi (foizda) |
| | **Viloyat jami** | **435 661** | **494 033** | **58 372** | **113%** | **1 338 732** | **1 154 484** | **-184 249** | **86%** |
| 1 | Viloyat budjeti | 245 550 | 288 299 | 42 749,2 | 117% | 486 425 | 352 842 | -133 583,3 | 73% |
| 2 | Termiz shahri | 24 559 | 27 409 | 2 850,3 | 112% | 53 292 | 48 341 | -4 951,1 | 91% |
| 3 | Oltinsoy tumani | 10 493 | 12 241 | 1 747,9 | 117% | 60 392 | 56 819 | -3 573,3 | 94% |
| 4 | Boysun tumani | 10 486 | 11 516 | 1 030,1 | 110% | 45 187 | 44 045 | -1 142,0 | 97% |
| 5 | Muzrabot tumani | 8 633 | 9 188 | 554,6 | 106% | 46 146 | 43 958 | -2 187,6 | 95% |
| 6 | Denov tumani | 21 886 | 22 751 | 864,5 | 104% | 106 185 | 107 611 | 1 425,7 | 101% |
| 7 | Jarqo‘rg‘on tumani | 14 236 | 15 072 | 836,3 | 106% | 65 604 | 60 907 | -4 696,6 | 93% |
| 8 | Qumqo‘rg‘on tumani | 13 860 | 14 387 | 526,3 | 104% | 65 695 | 62 494 | -3 201,0 | 95% |
| 9 | Qiziriq tumani | 8 457 | 9 000 | 542,6 | 106% | 41 542 | 38 908 | -2 633,8 | 94% |
| 10 | Sariosiyo tumani | 14 368 | 15 361 | 993,4 | 107% | 72 767 | 67 653 | -5 114,9 | 93% |
| 11 | Termiz tumani | 10 275 | 11 271 | 995,9 | 110% | 34 179 | 32 121 | -2 057,9 | 94% |
| 12 | Uzun tumani | 12 923 | 13 775 | 851,3 | 107% | 56 780 | 53 862 | -2 918,3 | 95% |
| 13 | Sho‘rchi tumani | 13 390 | 14 362 | 971,9 | 107% | 73 236 | 62 980 | -10 256,0 | 86% |
| 14 | Sherobod tumani | 11 741 | 12 243 | 502,2 | 104% | 55 665 | 50 745 | -4 920,2 | 91% |
| 15 | Angor tumani | 8 663 | 10 126 | 1 463,2 | 117% | 43 924 | 42 004 | -1 919,7 | 96% |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 16 | Bandixon tumani | 6 141 | 7 033 | 892,3 | 115% | 31 713 | 29 194 | -2 518,7 | 92% |